

	<p>5. www.nadlib.uz 6. www.pedagog.uz 7. http://www.gov.uz</p>
7.	<p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “<u>29</u>”, <u>08/10</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ul: S.T.Sobirov – ChDPU, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasи v.b.dotsenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: O‘.N. Nurotov – TDPU, “Tasviriy san’at” kafedrasи mudiri, dotsent, p.f.n. B.B. Baymetov – CHDPU “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasи professori, p.f.n.</p>

✓

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
 OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
 CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**TASVIRIY SAN’AT FANINI O’QITISH
 METODIKASI
 O’QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 - Ta’lim

Ta’lim yo‘nalishi: 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

Chirchiq-2023

Fan/modul kodi TSFO'M305	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ECTS – Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotla ri (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Tasviriy san'at o'qitish metodikasi	60	90
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarni umumiyligi o'rta ta'limga muktabalarida tasviriy san'at mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish, o'quvchilarda shu fan bo'yicha puxta bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Hozirgi vaqtida malakali mutaxassisidan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalarni talab qilishi va mutaxassislikni o'qitish metodlari va me'yordi bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish va tasviriy vositalarini puxta egallashiga yordam berish. Fanning vazifasi – talabalarni milliy va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga o'rgatish; <ul style="list-style-type: none"> - o'quvchilarning mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlovchi o'qitishning eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chihish; - bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish; - milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; - talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish. Shuningdek, tasviriy san'at o'qitishning maqsad va vazifalari, fanning mazmuni va tuzilishi, o'qitishning metod va tashkiliy shakllari, vositalarini tanlash va ishlab chihish, boshqa fanlar bilan aloqasi, mavzularning		

1. Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. (1-sinf uchun). O'quv qo'llanma. - T.: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.
 2. Rajabov R. K, Sultanov X. E. “Tasviriy sanat o'qitish metodikasi”. O'quv qo'llanma. Toshkent 2008.
 3. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o'quv]-metodik qo'llamma) Toshkent - «ILM ZIYO» – 2013.
 4. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik. — T.: «Fan va texnologiya nashriyoti», 2012.
 5. Sultanov X. E. “Rangtasvir” (Akvarelda naturmort ishlash, o'quv qo'llanma T.:“VNESHINVESTROM” MChJ, 2019.
 6. Sultonov X. E. “RANGTASVIR” (grizaylda rangtasvir ishlash, meodik qo'llanma) Toshkent – 2014.
 7. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: Fan, 2004.
 8. X.X.Muratov. “Qalamtasvir”. – Toshkent: Ijod-print, 2020.

X. O‘shimcha adabiyotlar:

- A. Qo'simma qurumi
1.R.A.Maylonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma
T.: Fan va texnologiya 2012-yil
2.B.Boymetov "Qalamtasvir" Pedagogika institutlari va universitetlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, "Iqtisod-Moliya"-2010.
3. Oydinov N. Rassom – o'qituvchilarni tayyorlash muammolari. –
Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Sultonov X.E. "Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" o'quv
qo'llanma. – Toshkent: 2016
5. Tojiev B. T, Sultonov X. E. QALAMTASVIR (manzara ishlash,
qo'llanma) Toshkent – 2013
6. Sobirov S.T. "Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati". Uslubiy
qo'llanma, Toshkent viloyati CHDPI, Chirchiq 2021.
7. Sultonov X.E, Sobirov S.T, O'.Xudaynazarova, R.Anqaboyev. "Yosh
musavvir to'garagi" Uslubiy qo'llanma, Nizomiy nomidagi TDPU,
Toshkent-2016

Axborot manbalari:

1. <http://edu.uz>
 2. <http://www.uzedu.uz>
 3. <http://www.cspi.uz>
 4. <http://Zivonet.uz>

	<ul style="list-style-type: none"> - Tasviriy san'atni o'qitish metodikasini o'qitish jarayonida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash haqida; - Umumiy ýrta ta'lif maktablarida tasviriy san'atga o'rgatish mashg'ulotlari uchun tasviriy san'at darslari uchun ishlalmalar tayyorlashni; - boshlang'ich sinf o'quvchisini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chihish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish uchun ko'nikma; - o'quvchilar bilimini baholash; - ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash; - o'quvchilar guruhlarini boshqarish; - tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish; - Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish; - tasviriy san'atga o'rgatish jarayonini tahlil etish; - ta'lif va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish to'g'risida malakaga ega bo'lishi kerak. <p style="text-align: center;">✓</p>
4.	<p>VII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihibar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar; • ijodiy ishlar yaratish. <p style="text-align: center;">✓</p>
5.	<p>VIII. Kreditni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p> <p style="text-align: center;">✓</p>
6.	<p>IX. Asosiy adabiyotlar:</p>

	<p>mazmuni va ularning ketma-ketligi, tushunchalarni shakllantirish yo'llari, ko'rsatmali qurollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, tasviriy va amaliy topshiriqlar mazmuni va o'rni kabi masalalar haqida bilim berish.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-Mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.</p> <p>Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanining maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lif maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish, o'quvchilarda shu fan bo'yicha puxta bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.</p> <p>- Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanining vazifasi - malakali mutaxassisdan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalarni talab qilishi va mutaxassislikni o'qitish metodlari va me'yorlari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish va tasviriy vositalarini bilishi.</p> <p>2-Mavzu: Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan.</p> <p>Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanini o'qitishga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, qadimgi Rim) ma'lumotlar va ularning xarakteri. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Ch.Chennini, Alberti, Leonardo da Vinci. A. Dyurer). XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar.</p> <p>XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o'rni. I.D. Preysler. A.G.Sapochnikov. G.A.Gipiuslarning tasviriy san'at o'qitish metodlarining rivojlanishida P.P.Chistyakov, D.N.Kardovskiy larning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o'qitish uslublari.</p> <p>3-Mavzu: O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atning o'qitilishi.</p> <p>Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. O'rta Osiyo, Eron, Misr miniatyurasi. Islom dini kirib kelgunga qadar O'rta Osiyo tasviriy san'ati. Kitoblarga bezak ishlash maktabi (K.Behzod). Samarqand.</p>
--	---

Buxoro maktablari. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar. O'zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishining shakllanishi. Ikkinci jahon urushi va undan keyingi birinchi o'n yilliklarda tasviriy san'atni o'qitilishi. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash. Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmular bilan ta'minlanishi.

Mustaqillik yillarda tasviriy san'at o'qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlar.

4-Mavzu: Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan mashg'ulotlarda foydalanishni o'rGANISHI.

Tasviriy san'atda darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Tasviriy san'at fanidan pedagogik texnologiyalarni qo'llash va pedagogik texnologiyalar haqida umumiy ma'lumot berish.

5-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.

Ta'lim sohasidagi islohatlar asosidagi mavjud prinsiplar (insonparvarlik, gumanizm, demokratizatsiya, integratsiya, differensiatsiya va individualizatsiya). Didaktik prinsiplar va ularning tasviriy san'atni o'qitishdagi ahamiyati. Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplarning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. Ilmiylik o'ngilik va faoliylik prinsipi. Ta'limni o'quvchilarning yoshi va kuchiga mosligi. Muntazamlik va ketma-ketlik prinsipi.

III. Amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi dasturini o'rganish va rejalashtirish.

Maktab dasturi bo'yicha butun o'quv yiliga mo'ljallangan, kasb-hunar kollejlardagi tasviriy san'atdan biron bir fan dasturiga mashg'ul mavzularini yillik taqvimiyo rejalashtirishini ishlab chihish. Asosiy maqsad - o'quv yilining har bir semestri bo'yicha dastur asosida dars mavzularini metodik jihatdan to'qri taqsimlab chihishiga o'rganishdir.

2-mavzu: Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.

Rassomlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish. Tasviriy san'at

- xos xususiyatlari.
12. Tasviriy san'at darslarini loyixalashtirish va amalda qo'llash.
 13. Tasviriy san'at darslarida slaydlar va master klasslardan foydalanish.
 14. Tasviriy san'at darslarida naturaga qarab rasm ishlash mavzusiga dars ishlanmasini tayyorlash.
 15. Tasviriy san'at darslarida "Chopon bola" mavzusida haykal ishlash mavzusiga dars ishlanmasini tayyorlash.
 16. Tasviriy san'at darslarida "Poliz ekinlari" mavzusida (natyurmort) dars ishlanmasini tayyorlash.
 17. Tasviriy san'at darslarida "Tog'da kuz" mavzusida dars ishlanmasini tayyorlash.
 18. Tasviriy san'at darslarida miniatyura mavzusiga dars ishlanmasini tayyorlash.
 19. Taniqli rassomlarning grafika va rangtasvir turlari bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish.
 20. Qish faslini idrok etish mavzusida dars ishlanmasini tayyorlash.
 21. "O'lkamizda bahor" mavzusida dars ishlanmasini tayyorlash.
 22. "Sport o'yinlari" mavzusida dars ishlanmasini tayyorlash.
 23. Ustozlar bayramiga tabriknomalarini ishlash mavzusida dars ishlanmasini tayyorlash.
 24. Kuzgi gullar mavzusida rasm ishlash mavzusida dars ishlanmasi tayyorlash.
 25. "O'zbekistonning me'morchilik yodgorliklari" mavzusida (suhbat) dars ishlanmasi tayyorlash.

- VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).**
- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**
- Tasviriy san'at haqida tushunchaga ega bo'lish;
 - O'quvchilarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni va xususiyatlari;
 - tasviriy san'atga o'qitish jarayonida tasviriy san'atni o'qitish metodikasining ishlash mazmuni, metod va texnologiyalari;
 - boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; tasviriy san'atga o'rgatishning didaktik tamoyillari;
 - boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash;

ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ishni tayyorlashda "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlardan foydalangan holda fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- Fanning talaba tomonidan o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan bo'limlарini va mavzularini chuqur o'rganish;
- Masofaviy ta'limdan foydalanish va hokozo.

Mustaqil talim talabalarga oldindan berib qo'yilgan mavzular bo'yicha referat, diagrammalar chizish va tahlil qilish, jadvallar to'ldirish, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash orqali amalga oshiriladi. ✓

V. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fan dasturi bo'yicha yillik taqvimiyo rejani ishslash.
2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tahlil etish.
3. Umumiy o'rtalik maktablari tasviriy san'at darslari uchun konseptlar tuzish. (umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslaridagi mavzular ketma-ketligi asosida barcha talabalarga alohida mavzular beriladi)
4. Yevropa davlatlari umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.
5. Osiyo davlatlari umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.
6. MDX davlatlari umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.
7. I.D.Preysler, A.G.Sapoynikov, G.A.Gipiuslarning tasviriy san'atni o'qitish metodikasini rivojlanishidagi o'mni.
8. O'rtalik Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.
9. K.Behzod va uning naqqoshlik maktabini o'rganish.
10. O'zbekistonda mustaqillik yillarda tasviriy san'atni o'qitilishi.
11. Umumiy o'rtalik maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga

darslarida etimologik tahlil. Tasviriy san'at atamalarini o'rgatish metodikasi. Tasviriy san'at asarlarini idrok etish. Milliy va jaon tasviriy san'at durdonalar bilan chuqurroq tanishish.

3-mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Mashg'ulotlarning maqsadi talabalarga mavzular asosida ko'rgazmali qurollar tayyorlash yo'llarini o'rgatish (plakat, model, jadval). Ko'rgazmali qurollarda mavzuni yorituvchi eng qulay usullardan foydalanish.

4-mavzu: Pedagogik tasvirlar ishslash (Sinf doskasida bo'r bilan ishslash).

Talabalarni tasviriy san'at darslarini o'tishga o'rgatishning pedagogik xususiyatlaridan biri pedagogik tasvirlar ishslash malakasini hosil qilish. Pedagogik tasvirlarni xususiyati, uning turlari. Qisqa muddatli qalamchizgilar bajarish. Sinf doskasida mustaqil va erkin, ketma-ketlikda chizgilarini tasvirlash. Sinf doskasida bo'r bilan rasmlar ishslash mashqi. Sinf doskasida eskiz, rasm, kompozitsiya bajarishning o'ziga xos xususiyatlari. Sinf doskasida bo'r bilan ishslashda turli materiallardan foydalanish usullari. Tasvirlarni doskada to'g'ri joylashtirish usullari.

5-mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash.

Tasviriy san'at darsi uchun dars konsepti va ishlanmasini (stsenariysini) ishlab chihish. Darsning borishini rejalashtirishga o'rgatish, kerakli ko'rgazmali qurollarni tanlash qamda o'qitish usullarini belgilash.

6-mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulotlaridan namunaviy darsni tashkil etish va o'tkazish.

Mashg'ulotning maqsadi – talabalarni maktab sharoitiga tayyorgarligini tekshirish va sinf xonasidagi tashkilotchilik jarayonini takomillashtirish. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash, nutqiy til boyligini ravon bo'lishiga e'tibor berish. Talabalar o'zlarini o'qituvchi sifatida his qilishlariga e'tibor berish va unga tayyorlash.

7-mavzu: Rassomlar ish qurollari haqida tushuncha. Dars jarayonida foydalaniladigan ish qurollari haqida ma'lumot berish.

Ish o'rnimi to'g'ri tashkil etish va rassomlarning ish qurollari haqida ularning vazifalari va ishlash texnologiyasi haqida to'liq ma'lumot berish.

8-mavzu: Tasviriy san'atdan darslarni loyihalash va modellashtirish.
Ta'limning ijodiy metodlari: tadqiqot, xususiy qidirish evristik, muammoli, muloqot, o'yin, loyiha va x.k dan foydalanim tasviriy san'at darslarini ishlab chiqish. Ijodiy metodlar va o'qitishning zamонавиъ vositalarini qo'llab dars konspekti (bayoni)ni tuzish. Ta'limning asosiy kontseptual asoslari insonparvarlik; aqliy va ijodiy.

9-mavzu: Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan mashg'ulotlarda foydalanishni o'rGANISH.
Tasviriy san'atda darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Tasviriy san'atidan pedagogik texnologiyalarni qo'llash va pedagogik texnologiyalar haqida umumiy ma'lumot berish.

10-mavzu: Fan dasturi bo'yicha yillik taqvimiylar rejani ishlash.
Fan dasturi bo'yicha yillik taqvimiylar rejani shakllantrish. Taqvim rejani shakllantrishda choraklar kesimida yakuniy nazorat hamda bayramlarni inobatga olish.

11-Mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baqolash.

Maktab o'quvchilariga tasviriy san'atdan beriladigan topshirqlarning shakllari. Sinf yoki auditoriyada va uyda bajariladigan topshirqlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish va baqolashning moqiyati. O'quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari. Joriy (baqolash) nazorat. Oraliq(baqolash) nazorat. Yakuniy (baqolash) nazorat. O'quvchilarning bilim va malakalarini baqolash mezonlari. (Oqzak so'rov, mashq, tasviriy ijodiy mustaqil ish, yozma ish, test sinovlari, uyzafalari).

Borliqni idrok etish, naturadan ishlangan rasmilar, naturaga qarab ishlangan haykallar, rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, san'atshunoslik asoslari bo'yicha hamda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va san'at tarixi fanlari bo'yicha o'quvchi (talaba) larning bilim va malakalarini baqolash mezonlarini o'ziga xos xususiyatlari.

12-Mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan darsdan tashqari ishlar.

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalarini

Maktabda tasviriy san'atdan fakultativ mashg'ulotlar, to'garaklar va ularning turlari. Maktabda tasviriy va amaliy san'atdan sinfdan tashqari tadbirlar.

13-Mavzu: Tasviriy san'at o'qitish metodikasi o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.

O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatdagi o'rni. O'qituvchining ma'naviy va kasbiy sifatlari. Maqoratli o'qituvchi – dars tashkilotchisi, ilxomlash tiruvchisi. Oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisi – san'atshunos – rassom – pedagog, uning funktional vazifalari. Maqoratli o'qituvchi va zamonaliv innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar. O'qituvchi faoliyatida rassom-pedagog va xalq ustalarining ilqor tajribalarini o'rni. O'qituvchi faoliyati psixologik sifatlarining ahamiyati.

14-Mavzu: Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.

O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning o'mni. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Innovatsion va interfaol usullar. Modulli o'qitish. Masofali o'qitish. O'qituvchining tasviriy ijodiy ishlari.

Tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati va uning turlari. Tabaqalashtirib o'qitishning ijobiy va salbiy jiqlatlari. Darajali va ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish. Individual ta'lif. Guruqli ta'lif. Tabaqalashtirilgan sinflar ta'limi. Tabaqalashtirilgan maktablar ta'limi. Tabaqalashtirilgan ta'linda tashxis o'tkazish. O'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan qolda dars o'tish metodikasi.

15-Mavzu:Tasviriy san'at o'qitish metodikasi xonasini tashkil etish va iihozlash, ish o'rnnini tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida tasviriy san'at xonasining ahamiyati. Tasviriy san'at xonasining jihozlari va o'quv qurollari bilan ta'minoti. Tasviriy san'at xonasida olib boriladigan ta'limiylar va tarbiyaviy ishlardir. Tasviriy san'at xonasiga bo'lgan talablar. Xonani zamonaviy ko'rgazmali badiiy vositalar bilan jihozlashda o'quvchilarning ishtiroki. Tasviriy san'at xonasining badiiy bezagi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'r ganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil